

IQLIM O’ZGARISHINING OSIYO MAMLAKATLARIGA TA’SIRI.

Tadjibayeva Lolaxon Akbarali qizi,
Farg’ona davlat universiteti, o’qituvchi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqlim o’zgarishining Osiyo mamlakatlariga, xususan Markaziy Osiyo davlatlariga ta’siri yoritilgan. Tadqiqotda iqlimning global miqyosda isishi natijasida O’zbekiston kabi mamlakatlarda yuzaga kelayotgan ob-havo sharoitining keskin o’zgarishi, suv resurslarining kamayishi va qurg’oqchilik kabi holatlar iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi, ekologik muammolarni yuzaga keltirishi ta’kidlangan. Shuningdek, ushbu muammolarning yechimi uchun taklif etilgan choralar va muhim tavsiyalar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim o’zgarishi, issiqxona gazlari, qurg’oqchilik, ekotizimlarning buzilishi, sog’liq muammolari, Juhon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro favqulodda vaziyatlar to‘g’risidagi ma’lumotlar bazasi, Markaziy Osiyo mintaqasi, ekologik va iqtisodiy muammolar, O’zbekistonda Yevropa mobillik haftaligi, yashil makon.

Iqlim o’zgarishi – bu yerning o’rtacha harorati va ob-havo sharoitlarining uzoq muddatli o’zgarishi bo’lib, bu tabiiy jarayonlar va inson faoliyati natijasida yuzaga keladi. Xususan, sanoat inqilobidan keyin atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari (CO_2 , CH_4 , N_2O) iqlim o’zgarishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga organik yoqilg’ilardan foydalanish, o’rmonlarning kesilishi, qishloq xo’jaligi va chorvachilik atmosfera ifloslanishiga sabab bo’ladi. Iqlimning o’zgarishi haroratning ortishi, qutb mintaqalarida muzliklar erib, dengiz sathining ko’tarilishi, qurg’oqchilik va suv taqchilligi, tabiiy ofatlarning ko’payishi, ekotizimlarning buzilishi, sog’liq muammolari kabi qaytarib bo’lmas oqibatlarni yuzaga keltirmoqda.

Juhon meteorologiya tashkiloti hisobotiga ko’ra, 2023-yilda Osiyoda iqlim o’zgarishi bilan bog’liq muammolar yanada keskinlashgan. Mintaqada o’rtacha global haroratdan tezroq isish kuzatilmoqda. Juhon meteorologiya tashkilotining (JMT) yangi hisobatida aytilishicha, Osiyo 2023-yilda ob-havo, iqlim va gidrologik xavf-xatarlar bilan bog’liq ofatlarga eng ko’p moyil mintaqa bo’lgan.

Juhon meteorologiya tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, 2023-yilda Osiyoda yillik o’rtacha sirt harorati rekord darajadagi ikkinchi o’rinni egallagan, bu 1991–2020-yillardagi o’rtacha ko’rsatkichdan 0,91 darajaga va 1961–1990-yillardagi o’rtacha ko’rsatkichdan 1,87 darajaga yuqori. Ayniqsa, G’arbiy Sibirdan O’rta Osiyogacha va Sharqiy Xitoydan Yaponiyagacha o’rtacha yuqori harorat qayd etilgan. Yaponiya va Qozog’istonda yil rekord darajada issiq bo’lgan. Hisobotda qayd etilishicha, Osiyoda yaqqol isish tendensiyasi 20-asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan. Mintaqalarning global o’rtacha ko’rsatkichdan tezroq isimoqda va uning darajasi 1961–1990-yillarga nisbatan deyarli ikki baravar oshgan.

2023-yilda Turon pasttekisligining aksariyat qismida (Turkmaniston, O’zbekiston, Qozog’iston), Hindukushda (Afg’oniston, Pokiston), Himolay, Gang daryosi mintaqasida va Osiyoning boshqa hududlarida yog’ingarchilik normadan past bo’lgan. Shuningdek,

5-Mart, 2025-yil

Xitoyning janubi-g‘arbiy qismida o‘tgan yil davomida deyarli har oyda yog‘ingarchilik me’yoridan kam bo‘lgan, bu esa qurg‘oqchilikka olib kelgan.

Yuqori tog‘li Osiyo — bu Tibet platosida joylashgan hudud bo‘lib, u qutb mintaqalaridan tashqarida eng katta muz hajmini o‘z ichiga oladi, muzliklar taxminan 100 ming kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Hisobotda aytilishicha, so‘nggi bir necha o‘nyillikda bu muzliklarning aksariyati tez sur’atlar bilan chekinmoqda. Yuqori tog‘li Osiyo hududida kuzatilgan 22 ta muzlikdan 20 tasi massasini yo‘qotishda davom etgan. Vaziyat Sharqiy Himolayda tez sur’atlarda yuqori harorat va quruq sharoitlar tufayli yanada og‘irlashgan.

Xalqaro favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi (EM-DAT) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda Osiyoda qayd etilgan gidrometeorologik xavflarning 80 foizidan ortig‘ini suv toshqinlari va bo‘ronlar tashkil etgan, deyiladi hisobotda. Hindistonda aprel va iyun oylarida kuchli jazirama 110 ga yaqin odamning o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, Qozog‘istonda 14 kishi o‘rmon yong‘inlari qurboni bo‘lgan⁴.

Iqlimning global miqyosda o‘zgarishi O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Maksimal havo harorati 40° dan yuqori bo‘lgan kunlarning o‘rtacha ko‘rsatkichi soni salbiy bo‘lib, so‘nggi 5 yilda o‘rtacha hisobda 5-7 kun, Orolbo‘yi va Amudaryoning quyi oqimida esa 12–17 kunni tashkil qilgan⁵. Muzliklarning umumiyyajmi 1957–2010-yillar uchun Pskom daryo havzasida ko‘rsatkich 24,3 foizga, Qashqadaryo daryo havzasida – 67,4 foizga, Surxondaryo daryo havzasida –40,1 foizga kamaydi.

Prognozlarga ko‘ra, 2030–2050-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida havo harorati yana 1,5–3 darajaga oshishi mumkin. Bunda, Orolbo‘yi mintaqasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati) havo haroratining eng yuqori darajaga ko‘tarilishi kutilmoxda, chunki u yerda Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq o‘ziga xos mahalliy iqlim o‘zgarishlari mavjud.

Iqlimning global miqyosda isishi Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar qatorida O‘zbekistonda ham bir qator ekologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, haroratning ko‘tarilishi yoz faslida issiq kunlar sonining ortishi va qurg‘oqchilik xavfining kuchayishiga, axoli salomatligiga hamda dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv resurslarining kamayishi O‘zbekistonda asosiy suv manbalari bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryo daryolaridagi suv sathining pasayishiga va qishloq xo‘jaligida sug‘orish muammolarini yanada kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari O‘zbekistonda qurg‘oqchil hududlarning kengayishi kuzatilmoxda. Bu, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orolbo‘yi hududida yaqqol seziladi. Orol dengizining qurishi tufayli yuzaga kelgan ekologik muammo iqlim o‘zgarishi ta’sirini yanada kuchaytiradi. Haddan tashqari issiq ob-havo sharoitlari yurak-qon tomir kasalliklari, issiqlik urishi va boshqa salomatlik bilan bog‘liq muammolarni kuchaytirishi mumkin. Havo sifatining yomonlashuvi esa allergiya va nafas yo‘llari kasalliklarining ko‘payishiga olib kelishi ehtimoli bor.

⁴ [Gazeta.uz](#). 23 may 2024y.

⁵ Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Dekabr 2023 y.

5-Mart, 2025-yil

O’zbekiston hukumati iqlim o’zgarishiga moslashish va uning salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bunga misol tariqasida «2019–2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi» va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori (02.12.2022-yildagi PQ-436сон)ni keltirish mumkin. Ushbu hujjatlar mamlakatning Parij kelishuvi doirasida qabul qilingan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular doirasida yashil energetika loyihibarini rivojlantirish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ekologik muhofaza tadbirlarini kuchaytirish, “yashil makon” loyihasi doirasida millionlab daraxtlar ekish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

«Avtomobilsiz kun!» aksiyasi. Ushbu aksiyadan ko‘zlangan maqsad – avtomobil transportining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va sog‘lom turmush tarzi uchun velosipeddan foydalanishni targ‘ib qilishdan iborat⁶. Bundan tashqari, «O’zbekistonda Yevropa mobillik haftaligi» kompaniyasi atrof-muhit holatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, u Yevropa Ittifoqining O’zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan. Tadbir aholini ekologik toza transport turlariga o‘tishga chaqiradi va shu orqali issiqxonalarini tashlamalarini kamaytirishga xizmat qiladi⁷.

Iqlim o’zgarishini oldini olish uchun nimalar qilish kerak? Buning uchun, avvalo, yashil energiyaga o‘tish – quyosh, shamol va suv energiyasidan ko‘proq foydalanishni yo‘lga qo‘yish, o‘rmonlarni himoya qilish va ko‘proq daraxt ekish, transport tizimini ekologik toza qilish, ya’ni elektrotransport va jamoat transportidan ko‘proq foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishslashni yanada rivojlantirish hamda energiyani tejash uchun elektr va suvdan samarali foydalanishni takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, iqlim o’zgarishi, nafaqat O’zbekiston va Osiyo mamlakatlari uchun, balki butun dunyo uchun jiddiy muammo bo‘lib, uning oqibatlarini kamaytirishga hozirdan harakat qilmasak, kelajak avlodlar uchun Yer sharoitlari yanada og‘irlashishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Таджибаева, Л. А. (2023). ЗНАЧЕНИЕ" ЗЕЛЕНОЙ ЗОНЫ" В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ, АНТРОПОГЕННЫХ ЛАНДШАФТОВ. *Science and innovation in the education system*, 2(9), 29-33.
2. Tadjibayeva, L., Anvarova, M., A’zamova, R., & Valijonov, U. (2024). FITOREMEDIATSIYA: ATROF-MUHITNI TOZALASHNING TABIIY USULI. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(15), 166-170.

⁶ <https://www.gazeta.uz/ru/2023/04/26/car-free-day/>

⁷ <https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan>; <https://www.facebook.com/EuropeanMobilityWeekUz>

5-Mart, 2025-yil

3. Isaqov, V., & Tadjibayeva, L. (2024). FARG ‘ONA SHAHRINING GEOKIMYOVIY LANDSHAFTLARI, ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Farg’ona davlat universiteti*, (2), 129-129.
4. Tadjibayeva, L. (2023). SHAHAR HUDUDLARIDA ATROF-MUHIT IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA SALBIY TA’SIRI. *Hayka u инновация, 1(5)*, 67-70.
5. Gazeta.uz. 23 may 2024y.
6. O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O’zbekiston. Dekabr 2023 y.
7. <https://www.gazeta.uz/ru/2023/04/26/car-free-day/>
8. <https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan>;
9. <https://www.facebook.com/EuropeanMobilityWeekUz>
10. <https://climate-adapt.eea.europa.eu/en/metadata/portals/em-dat-the-international-disaster-database-year-of-launch>